

O'qituvchi va murabbiylarni sharafladilar

30 sentyabr kuni Navoiy davlat konchilik institutining faollar zalida O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda zalda yig'ilgan NDKI professor-o'qituvchilarni va FA Navoiy bo'limi xodimlarini tabrik so'zi bilan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" bosh direktori Quvondiq Sanaqulov qutladi va O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni tabrik so'zlarini yetkazib qo'ydi.



Хурматли Қувондик Мирзанович!

Сизни кўпминг кишилиқ Навоий кон-металлургия комбинати жамоаси ҳамда шахсан ўз номимдан қутлуғ 60 ёшга тўлганингиз билан чин дилдан самимий табриклаймиз.

Сиз эътиборли оилада камолга етгансиз. Отангиз элда ҳурмат топган инсонлардан бири эди. Бунга муносиб тарзда сулола ишини изчил давом эттирган ҳолда, турли масъул лавозимларда сидқидилдан хизмат қилиб келаяпсиз. Жумладан, қатор йиллар ишлаб чиқариш корхоналарида ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларда ишлаганингиз, бугунги кунда эса Ўзбекистон Фанлар академияси Навоий бўлими раиси ўринбосари лавозимида фаолият олиб бораёпсиз.

Сизни билимли, тажрибали ва мулоҳазали инсон эканлигингизни яхши биламиз. Ўзингизни илм-фан соҳасига бағишлаб, қанчалик машаққатли бўлмасин изланишлар натижасида физика-математика фанлари номзоди илмий унвонига эришгансиз. Айни пайтда фаолиятингиздаги изланишлар бардавомдир. Бор куч-ғайрат ва билимингизни фан докторлиги илмий ишга сарф этиб, хайрли ишларни бошлагансиз. Сизнинг навбатдаги нуфузли илмий унвонни қўлга киритишингизга тилакдошмиз.

Ҳар бир инсон учун босиб ўтган ҳаёт йўли қадрли. Унинг ким бўлиши, жамиятдан қандай ўрнини топиши саъй-ҳаракатига боғлиқ. Сиз серқирра фаолият йўлингизда кўп ютуқларга эришган инсонсиз. Зиммангизга олган вазифаларни собитқадамлик билан бажаришдаги фаоллигингиз ва жонқуярлигингиз эътирофга муносибдир. Келгусида ҳам интилишларингиз ҳаётингизга янги қувончларни олиб келсин.

Қадрли Қувондик Мирзанович!

Яна бир бор қутлуғ 60 ёшга тўлганингиз билан қизгин муборакбод этар эканмиз, Сизга мустаҳкам соғлиқ-саломатлик, куч-ғайрат, оилавий тинчлик-хотиржамлик, шарафли ва масъулиятли ишларингизда зафарлар тилаймиз.

Ҳурмат билан,

**Навоий кон-металлургия
комбинати жамоаси номидан**

 **Қ.Санақулов**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
"DO'STLIK" ORDENLI
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI"
DAVLAT KORXONASI

FAXRIY
YORLIQ

NURBOYEV
QUVONDIQ MIRZANOVICH

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasi ma'muriyati
va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining

2020 yil "15" 09 dagi 8630-sonli qaroriga binoan

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasidagi
fidokorona mehnati hamda O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatini
rivojlantirishdagi qo'shgan munosib hissasi hamda
60 yoshlik yubileyi munosabati bilan taqdirlanadi.

NKMK DK bosh direktori

NKMK KUK raisi



K.Sanakulov

I.K.Raxmatov

yosh avlod va davlat oldida burch bo'lganini ta'kidlab, tadbir ishtirokchilariga, ayniqsa, yoshlarga ilm bilan shug'ullanish shartligini aytib o'tdi. Chunki faqat ilm bo'lgan joyda rivojlanish bo'ladi.

Bundan tashqari NKMK bosh direktori bir guruh professor-o'qituvchilarni hamda olimlarni „Konchilik shuhrati“ ko'krak nishonlar, faxriy yorliqlar, pul mukofoti hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirladi.

Ularning ichida FA Navoiy bo'limi xalqaro aloqalar va tijoratashtirish masalalari bo'yicha rais o'rinbosari Quvondiq Nurboev ham bor edi. 60-yoshlik yubileyi munosabati bilan Q.Nurboevga tabriknoma, faxriy yorliq bilan birga zar chapon berildi.